



## XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING QARORI

2025-yil 28-yanvar

VII-5-7-7-96-K/25

Kattaqo'rg'on tumani

### **Tuman soliq inspeksiyasi boshlig'i N.Razzoqovning 2024 yilda mahalliy byudjet prognoz ko'rsatkichlari bajarilishi, soliq qarzlarini qisqartirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida**

Tumanda mahalliy byudjet prognoz ko'rsatkichlari bajarilishini ta'minlash, hududning iqtisodiy o'sish nuqtalarini inobatga olgan holda qo'shimcha manbalarni aniqlash, soliq qarzlarini qisqartirish, ortiqcha to'lov larga yo'l qo'ymaslik bo'yicha amalga oshirilgan ishlar samaradorligini oshirish, tuman soliq inspeksiyasi boshlig'i N.Razzoqovning hisobotini muhokama etib hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 24-moddasiga asosan VII chaqiriq xalq deputatlari tuman Kengashining beshinchi sessiyasi

#### **QAROR QILADI:**

**1.** Tuman soliq inspeksiyasi boshlig'i N.Razzoqovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

**2.** Tuman soliq inspeksiyasi (N.Razzoqov)ga:

-mahalliy byudjetning 2024-yil I chorak daromadlar prognoz ko'rsatkichlarining barcha manbalar bo'yicha so'zsiz bajarilishini ta'minlash;

-daromadlar bazasini kengaytirish va iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zaruriy choralarni ko'rish;

-soliq undiruvchanlik darajasini oshirish choralarini ko'rish;

-soliq to'lovchilar va fuqarolarni soliq sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida xabardor qilishni ta'minlash hamda joylarda soliq to'lovchilarga o'z vaqtida sifatlari xizmat ko'rsatishni amalga oshirish borasida aholi o'rtasida targ'ibot ishlari olib borish;

-soliq ma'muriyat chiligi vositalari hisob va tushumlarning to'liqligiga, shu jumladan soliqlardan bo'yin tovlagan jismoniy va yuridik shaxslarni aniqlash va javobgarlikka tortishga qaratilishini ta'minlash vazifasi yuklatilsin.

**3.** Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy masalalar

bo'yicha komissiyasi (A.Xudoyberdiyev) va tuman hokimining birinchi o'rinnbosari N.Jo'lmatov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV  
JAMSHID  
TULKINOVICH